



ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ

ВЕСТНИК НУУЗ АСТА NUUZ

МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ
УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

**ЖУРНАЛ
1997
ЙИЛДАН
ЧИҚА
БОШЛАГАН**

**2022
1/11**

**Ижтимоий-
гуманитар
фанлар
туркуми**

Бош муҳаррир:

И.У.МАЖИДОВ – т.ф.д., профессор.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Р.Х.ШИРИНОВА – ф.ф.д., профессор

Таҳрир хайъати:

Сагдуллаев А.С. – т.ф.д., проф.

Аширов А.А. – т.ф.д., проф.

Баллиева Р. – т.ф.д., проф.

Маликов А.М. – т.ф.д., проф.

Юсупова Д.Ю. – т.ф.д., проф.

Муртазаева Р.Х. – т.ф.д., проф.

Мўминов А.Г. – с.ф.д., проф.

Нишонов О.Ж. – ф.ф.д., проф.

Абдуллаева Н.Б. – ф.ф.д., проф.

Мадаева Ш.О. – ф.ф.д., проф.

Туйчиев Б.Т. – ф.ф.д., проф.

Утамурадов А. – ф.ф.н., проф.

Мухаммедова Д.Г. – псих.ф.д.

Болтабоев Х. – фил.ф.д., проф.

Раҳмонов Н.А. – фил.ф.д., проф.

Сиддиқова И.А. – фил.ф.д., проф.

Садуллаева Н.А. – фил.ф.д., доц.

Арустамян Я.Ю. – фил.ф.д., доц.

Пардаев З.А. – фил.ф.ф.д., PhD.

Рофиева Г.Ю. – фил.ф.ф.д., PhD.

Масъул котиб: **З. МАЖИД**

ТОШКЕНТ – 2022

МУНДАРИЖА

Тарих

Бегамова Н. Мустақилликнинг дастлабки йилларида мамлакатимизда қишлоқ хўжалиги соҳасида амалга оширилган тадбирлар.....	4
Бободустов Б. Ўрта Зарафшон воҳасининг суғориш тизимидаги ўзгаришлар (XIX асрнинг 80-90 йиллари).....	7
Бобоева С. Сурхон воҳасининг электрлаштирилиши.....	10
Дармонова М. Жадиdlарнинг иқтисодий қарашлари.....	14
Исмоилов У. Биринчи жаҳон уруши йилларида Туркистонда пахта яққа ҳокимлиги оқибатлари.....	17
Қурбонов Б. Ислон ҳуқуқининг шаклланиш тарихи.....	20
Маҳмудов О. Ўрта аср Европа таржима марказлари тизимида Жанубий Франция шаҳарларининг ўрни: Марсель ва Монпелье.....	23
Маҳкамова Н. Сугднинг антик ва илк ўрта асрлар даври кулоллик идишларининг ўрганилиши натижаларига доир.....	28
Назаров А. Навбоғтепа ёдгорлигининг Қорахонийлар даври бўз рангли сопол кўзалари.....	31
Payzieva Ch. XX asrda art-kriminalistika identifikatsiya va badiiy ekspertiza integratsiyasida.....	35
Pirimqulov J. Toshkent jadid muallimlariningalifbo islohotidagi ishtiroki.....	38
Раджабов О. Шаҳар темир йўл транспорти ишчи-ходимларининг жинс, ёш, миллат ва малака таркиби масалалари.....	41
Умаров У. Ўртаосиё палеолит даври жамоаларининг маънавий-мафкуравий ҳаётини ёритишда зебу-зийнат тақинчоқларининг тугган ўрни ва аҳамияти.....	44
Хасанов Б. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Наманган вилояти таълим тизими: “Барчаси фронт учун” тамойилининг татбиқ этилиши.....	48
Холикулов А. Бухорода амирлигида бўлган элчилар кундаликларида сарой-қабул маросимлари хусусида баъзи мулоҳазалар.....	53
Хўжаназаров А. Халқимиз генофондини мустаҳкамлаш борасида амалга оширилган тиббий хизматлар.....	58
Эшқуватов Б. Христианликнинг гоъвий асослари ва унинг марказий оснёда шаклланиш жараёнлари.....	62
Фалсафа. Педагогика. Психология. Методика. Социология. Сиёсий фанлар	
Авезова Д. Организация раннего ухода за детьми с расстройствами аутистического спектра и их семьями.....	65
Adashboev N. Fuqarolarning murojaat qilish huquqi to'g'risida ayrim mulohazalar.....	69
Акбарова Г., Носиров М. “Қайта тикланувчи энергия манбалари” фанини ўқитишда таълим самарадорлигини ошириш.....	73
Алимов У. Компьютерда визуаллаштириш дидактик тамойилларни амалга оширишнинг методик таҳлили.....	76
Амиркулов Ж. Иқтидорли ўсмир ўқувчиларни психологик ўрганишнинг илмий -амалий тажрибаси.....	80
Арзикулов Х. Бўлажак информатика ўқитувчиларининг график компетентлигини ривожлантириш модели.....	83
Атавуллаев М., Шатураева С. Глобаллашув, ташки сиёсат ва унинг гоъвий-мафкуравий соҳа билан боғлиқлиги.....	87
Ахатжонов С. Вакиллик ҳокимияти органлари ва фуқаролик жамияти институтлари ҳамкорлиги борасидаги мавжуд муаммолар.....	91
Ашуров И. Телекоммуникация соҳаси раҳбар кадрларнинг узлуксиз касбий ривожлантириш жараёнларини бошқариш илмий-педагогик муаммо сифатида.....	95
Bozorbayev I. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida sirtqi ta'lim jarayonini tashkil etishning asosiy tendensiyalari.....	98
Bozorova N. Tarix darslarida mahalliy manbalardan foydalanish, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uning samaradorlik natijalari tahlili.....	102
Jabbarov U. Development of competencies using multimedia educational programs in foreign language teaching.....	105
Зияев У. Бўлажак муҳандисларда фундаментал тайёргарликни ривожлантиришнинг педагогик шарт-шароитлари.....	108
Ibragimov B. Bo'lajak o'qituvchining axloqiy mas'uliyatini shakllantirishning ilmiy yondashuvlari va tamoyillari.....	111
Ийманов Ж. Марказий Осиёда маънавий барқарор муҳитни таъминлашда превентив дипломатиянинг аҳамияти.....	114
Ikramov A. Use of information technologies in the educational process is the need of the time.....	117
Инагамова Ф. Оила ва никоҳ институтининг ривожланиш генезиси.....	120
Исакова З. Орифким, ваҳдат сирига воқиф эрмиш.....	123
Ismoilov A. Dars mashg'ulotlari jarayonida fizik hodisalarni o'rgatishda axborot texnologiyalarining o'rni.....	127
Karimova K. TDTU talabalari orasida energetik ichimliklar iste'mol qilish tarqalishi darajasi tahlili.....	130
Кушанова м. Ўсмирлар агрессив хулқ-атворининг ижтимоий психологик тавсифи.....	133
Кодиров М., Вохидов Э., Қосимов Б. Мактабларда физика фанини ўқитишда учрайдиган муаммоларини таълим сифатига таъсири.....	137
Латинова М. Талабаларга адабиёт дарсини моделлаштиришга ўргатиш методикаси.....	140
Mavlonova K. 7-sinf ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish mazmuni.....	144
Мамадияров Ў. Тергов-суд жараёнида суд- психологик экспертизанинг аҳамияти.....	147
Маҳаммаджанов Г. Анъанавий ва замонавий жамиятларда сиёсий институтлар тизимидаги ўзгаришлар динамикаси.....	150
Мейлиев У. Глобаллашувнинг ёшлар ижтимоий-сиёсий дунёқарашига таъсири ва таҳдиди.....	154
Mirsanov U. Dasturlash tillarini o'qitish samaradorligini oshirishda web-kvest ta'lim texnologiyasining imkoniyati.....	158
Муҳаммадонузова М. Гендер тенгликни таъминлашнинг этнохудудий хусусиятлари.....	161
Назарова З. Узлуксиз таълимда тарбия фани ўқитувчиларининг ижодий салоҳиятини ривожланишида малака ошириш тизимининг аҳамияти.....	164

Nizamova D. Shikastlanganlarga birinchi yordam – talabalar hayotida tibbiy va xavfsizlik madaniyatining muhim komponenti	168
Одилов Ё. Физика ўқитиш асосида талабаларни лойиҳавий-конструкторлик фаолиятига тайёрлаш	171
Otajonova S. Talabalarda valeologik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	175
Rustamov L. Pedagogik amaliyotni amalga oshirish jarayoni mazmuni	178
Сандмуратова М. Ёшларда китобга меҳр уйғотиш	182
Sarayeva G. Axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalar integratsiyasida talabalarga analitik kimyo fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish	185
Собирова Д. Тиббиёт ходимлари касбий компетентлигининг (ККС) эксперт баҳолаш натижалари	189
Талапов Б. Прагматик сиёсат ва конституциявий ислохотлар - Янги Ўзбекистон миллий демократик тараққиётининг асоси	192
Тоғжиев М. 5-7 ёш гимнастикачиларнинг жисмоний ривожланиш ва жисмоний тайёргарлик кўрсаткичларини ёшга оид ўзгариш динамикаси	196
Тошев О. Ижод-илмий тафаккурни шакллантирувчи ва ривожлантирувчи омил сифатида	199
Тўхтабоев Н. Балансликка сарқовчи юртимиз қизларнинг спорт натижаларини тайёргарлик гуруҳлари бўйича босқичма-босқич ўсиш имкониятини таҳлили	201
Уразбаева Д. Саратов ташхиси қўйилган беморларнинг психозоматома ва ижтимоий психологик ҳолатларининг ўзаро боғлиқлиги	204
Халикова Л. Методы применения теоретических знаний на уроке физической культуры	207
Ҳайитов Б. Масофавий таълим технологиялари воситасида талабаларнинг фундаментал билимларини ривожлантириш методикаси	210
Шакарров Ў. Раҳбар ахлоқи тушунчасининг назарий ва методологик асослари	214
Shamsitdinova M. The significance of listening comprehension in english language teaching	218
Шербобоев Х. Умумтаълим мактабларида замонавий информатика таълимининг асосий йўналишлари ва когнитив парадигмаси	222
Шерманов Н. Биотехнологик жараёнлар тараққиётида моддий ва маънавий ишлаб чиқариш уйғунлиги муаммолари	226
Shernazarov I. Xalqaro baholash tadqiqotlari asosida bo'lajak kimyo o'qituvchilarni tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish	229
Shukurova D. Ta'lim klasteri sharoitida inkluziv ta'lim samaradorligini oshirishning nazariy asoslari	233
Eshquvatov T. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarda nizoli vaziyatlar profilaktikasi	236
Ярмухамедова Н. Политика «Мягкой силы» в современной внешней политике Турции в среднеазиатском регионе	239
Филология	
Abdullaeva M. Linguocultural characteristics of proverbs expressing gender relations	242
Abdullayeva N. O'zbek adabiyoti hikoyalarda talabalik davri tasvirining berilishi	245
Ablakulova I. Tarjimada mukammallikka erishish mezonlari	248
Adambaeva F. Biotexnologiyaga oid terminlarni o'rganishning zaruriyati	251
Allayarova Z., Niyazova F. Linguistic structure of Turkic agroterms in the Uzbek language	254
Байжигитов О. Ўзбек фразеологик бирликларининг прагматик таҳлили	257
Barotova M. Yelka bilan bog'liq paralingvistik vositalarning semantik xususiyatlari	261
Жуманов Э. «Бойвачча билан пари» эртагидаги анъанавий формулалар таҳлили	264
Пўлатова С. Концепт миллий характери ифодаловчи тушунча сифатида	267
Rizayeva K. Ingliz va o'zbek mediadiskursining nutqiy janr sifatida umumiy xususiyatlari	270
Суюнов Б. Термин ва бошқа тил бирликлари масаласи	273
Тоҳирова С. Литературная ценность переводов произведений таджикского писателя С.Айни на английский язык	276
Umarova S. Linguistic and lexicographic features of paremiological units with phytonymic component in the Uzbek language	279
Umurova X. Lacunae "Wedding" in Uzbek and Russian languages	282
Худойбердиев Ж. Араб алифбоси асосидаги татар ёзувининг ислоҳи ҳақида	284
Шаропова З. Тезаурус ва компьютер технологиялари таълиқи масаласи	288
Шербоев Н. Савдо ходимлари нутқи бўйича илмий изланишлар олиб борган олимлар ишлари тадқиқи	291



UDK: 371.81 367. 32

Klaraxon MAVLONOVA,

TDO'TAU ta'limi kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

E-mail: klara_mavlonova@mail.ru

NDPI O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsent v.b., ped. f.n. Qurbonova X. Q taqrizi asosida

THE CONTENT OF TEACHING TEXT STRUCTURE IN 7th GRADE PUPILS' MOTHER TONGUE LESSONS

Abstract

Teaching text structure is one of the most important learning objectives in developing students' connected speech. It is important to develop students' oral and written speaking skills by teaching them features of the functional-semantic structure of the whole text, the laws of text creation. This article discusses the issues of defining the content of 7th grade students text structure based on the principles of continuity and gradualism and directing students' linguistic knowledge of the text structure to the development of speech skills in the text composition.

Key words: Text structure, pronoun dependent in text structure, text creation, pronoun, modal verbs, conjunctions, prepositions and punctuation.

СОДЕРЖАНИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ СТРУКТУРЫ ТЕКСТА НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА 7-Х КЛАССНИКОВ

Аннотация

Обучение структуре текста является одной из важнейших целей обучения в развитии связной речи учащихся. Важно развивать у учащихся навыки устной и письменной речи, обучая их особенностям функционально-смысловой структуры всего текста, законам текстообразования. В данной статье рассматриваются вопросы определения содержания структуры текста учащихся 7-х классов на основе принципов непрерывности и градуальности и направления лингвистических знаний учащихся о структуре текста на развитие речевых навыков в составе текста.

Ключевые слова: Структура текста, зависимое местоимение в структуре текста, создание текста, местоимение, модальные глаголы, союзы, предлоги и знаки препинания.

7-SINF ONA TILI DARSLARIDA MATN TUZILISHINI O'RGATISH MAZMUNI

Annotatsiya

O'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirishda matn tuzilishini o'rgatish eng muhim ta'limiy maqsadlardan biridir. O'quvchilarga yaxlit matnga xos funksional-semantik tuzilish xususiyatlarini, matn yaratish qonuniyatlarini o'rgatish orqali og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada 7-sinf o'quvchilarini matn tuzilishiga doir ta'lim mazmunini uzluksizlik, uzviylik, tadrijiylik tamoyillari asosida belgilash, o'quvchilarda matn tuzilishiga doir egallanadigan lingvistik bilimlarni matn tuzilishga oid nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Matn tuzilishi, matn tuzilishida olmoshli bog'lanish, matn yaratish, olmosh, modal so'zlar, bog'lovchi, yuklamalar va tinish belgilari.

Kirish. Dunyoda ta'lim oluvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda matnlardan foydalanish, matn tahlili orqali tilga oid bilimlarni chuqurroq egallash, ona tili darslarida turli uslubdagi matnlarning til xususiyatlarini matn yaratish darajasida o'rgatish, matn tuzilishiga doir ta'lim mazmuni va metodlarini ishlab chiqishning nazariy masalalari tadqiq etilmoqda. Ona tilining matn tuzilishi bilan bog'liq me'yorlaridan, nazariy ma'lumotlaridan yozma nutqni ijodiylik tavsifida o'rgatish, matnning (murakkab sintaktik butunlikning) tuzilishiga xos til xususiyatlarini ta'lim mazmunida aks ettirish, o'quvchilarning mantiqiy izchillikda, fikrlarni o'zaro bog'lanishda ifodalash tarzidagi ijodiy ishlarga monand qobiliyatlarini yuksaltirish maqsadida foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish kabi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlarga zarurat yuzaga kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda matn sintaksisi (lingvistikasi) keng yoritilgan [1], [2], [3], [4], [5], [6], [7], [8].

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim jarayonida ona tilini o'qitish, o'quvchilarni matn yaratish bilan bog'liq nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish, ijodiy tafakkurini o'stirishning ayrim masalalari T.Ziyodova [9], M.Rixsiyeva [10], N.I.Bekniyozovalar tomonidan tadqiq

etilgan [11]; R.A.Yo'ldoshev va M.M.Rixsiyevalar [12], K.Mavlonova, R.Yo'ldoshev, N.Xakimovalar [13] tomonidan metodik qo'llanma yaratilgan. Shuningdek, MDH davlatlari olimlaridan I.R.Galperin, T.A.Ladijenskaya, L.I.Velichko, L.M.Loseva, M.R.Lvov, V.G.Goretskiy, O.V.Sosnovskaya, Y.M.Sorokina, G.N.Urinbayeva, S.Sadixovalarning tadqiqot va metodik qo'llanmalarida matn tuzilishi ustida ishlash mazmuni hamda usullari kabi masalalar o'rganilgan.

Ammo matn tuzilishini sinflar kesimida zarur tamoyillar asosida o'qitish metodikasi ilmiy tadqiqiy aspektida maxsus o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Matn yaratish haqidagi qoidalar qisman (elementar darajada) boshlang'ich sinflarda boshlanadi [Bekniyozova H. 2012, 160], 5-sinfdan boshlab uzluksizlik, uzviylik, tadrijiylik asosida olib boriladigan o'qish-o'rganish orqali amalga oshiriladi. Uzluksizlik matn tuzilishiga doir qoidalarini sinfdan sinfga tadrijiy takomillashtirib, murakkablashtirish orqali ta'minlanadi. Ana shu tamoyil asos qilinib olingan holda 7-sinf ona tili darslarida matn tuzilishiga doir qoidalar belgilab chiqiladi. Bunda quyidagi holatlar hisobga olinadi:

1) 5-6-sinflarda o'tilgan qoidalarining muayyan qismini takrorlash; 2) 5-6-sinflarda o'tilgan nazariy

ma'lumotlar 7-sinfda kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi, tasniflar to'liqroq beriladi; 3) yangi ma'lumotlar.

Birinchi guruh qoidalar 7-sinfda o'quv yili boshida yangi jihatlar bilan boyitilmagan holda ularni faqat takrorlash, xotirlash usuli qo'llanadi. Shunda ham qoidalarining o'zi emas, balki amaliy harakatlarni tiklash choralari ko'riladi.

Ikkinchi guruh qoidalar 5–6-sinflarda o'rganilgan lingvistik tushunchalarning yangi qirralari ma'lum qilinadi.

7-sinfda "Ona tili" darsligi [14]da ayrim tushunchalarning mukammalroq ochib berilishi, ya'ni o'quvchilar bilimni tushunchalarning yangi qirralari hisobiga kengaytirish imkoniyatlaridan foydalaniladi. Shuningdek, til hodisasining to'liqroq tasnifi bilan tanishish munosabati bilan yangi qoidalarini o'rgatish ko'zda tutiladi. Masalan, 5–6-sinflarda gaplar va matn qismlarining kishilik va ko'rsatish olmoshlari yordamida bog'lanishi o'rganilsa, 7-sinfda shu maqsadda olmoshning boshqa turlaridan foydalanish masalalari ustida ish olib boriladi.

Uchinchi guruh qoidalariga modal so'zlar, tinish belgilari (ikki nuqta, nuqtalar va b.) kiritiladi. 7-sinf uchun matn tuzilishiga doir qoidalar mundarijasini yana ham aniqroq qilib belgilashda amaldagi "Ona tili" darsliklari va milliy dasturda 7-sinf uchun tayin etilgan talablardan ham kelib chiqiladi [15].

Tahlil va natijalar.

I. 7-sinf o'quv yili boshida va o'quv yili davomida 5-sinfda o'tilgan, 6-sinfda qisqa takrorlangan qoidalaridan ayrimlari ularga yangiliklar deyarli kiritilmagan holda takrorlanadi: sarlavha, sarlavhada qo'yiladigan tinish belgilari; kichik mavzular, reja tuzish; matn qismida dialog, tasnif, she'riy parcha; matnga maqol, hikmatli so'z, hadis, rivoyat, sitata kiritish; ko'chirma gaplarda tinish belgilari. Shuni ham e'tiborga olish lozim bo'ladiki, 7-sinf darsligida o'tilishi munosabati bilan matnga sitata kiritish ustidagi ishlarga alohida vaqt ajratiladi. 6-sinfda o'tilganlarni takrorlashda tezis, matnlarda atqoli otlar; gap tuzishdagi (izchillik, mantiqiylik, aniqlik, so'zni o'z o'rnida ishlatish) g'alizliklar ustida maqsadli o'quv topshiriqlari orqali mustahkamlanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan tushunchalar bilan bog'liq qoidalar o'ta muhim bo'lib, to'la malaka (lingvistik kompetensiya) shakllanmagunga qadar o'quvchilar xotirasida tiklanib turilishi kerak.

II. 7-sinfda payt va o'rin ma'nosini ifodalovchi kelishik shakllari bilan shakllangan so'zlar, tinish belgilari, bog'lovchilar, ko'makchilar, yuklamalar bilan to'laroq tanishish sodir bo'ladi. Demak, ushbu so'z turkumlarining gaplarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiladigan qismlari ajratiladi.

6-sinfda o'rganilgan o'rin-payt kelishigini takrorlash munosabati bilan payt va o'rin ma'nosini ifodalovchi so'zlarning butun abzasga tegishli bo'lganda abzas boshida, alohida gapda kesimdan oldin kelganda shu gap tarkibida (kesimdan oldin) ishlatilishi haqidagi qoidani esga olish mumkin.

Matnda uning ta'sirchanligini va ifodaviyligini oshirish uchun xizmat qiladigan so'zlar badiiy asarlarda badiiy uslubga xos ravishda gaplarda so'z ishlatish bilan bog'liq ravishda o'rganiladi. Bunda so'zlarning ko'p ma'noliligi, ko'chma ma'noliligi, ma'nodoshligi, shakldoshligi, qarama-qarshi ma'noliligi diqqat markazida bo'ladi.

Matn tuzilishida olmoshli bog'lanish o'ziga xos vazifa bajaradi: gaplar o'rtasidagi uslubiy va mazmuniy aloqani amalga oshiradi.

Darslikda olmosh haqidagi ma'lumot uning asosan barcha mustaqil so'z turkumlari, ba'zan yordamchi so'zlar, so'z birikmasi va gap o'rnida almashinib qo'llanishi, ularga ishora qilishi yoki so'roq bildirishi ta'kidlangan. Masalan: Kitobni ko'p o'qisangiz, undan ko'p hikmat topasiz. Istagim shuki, doimo tinchlik bo'lsin.

Birinchi gapda undan olmoshi kitob so'zi (ot) o'rnida, ikkinchi gapda shuki olmoshi doimo tinchlik bo'lsin gapi o'rnida qo'llangan. Olmoshlarning aniq atash ma'nosi bo'lmaydi. Uning qaysi ma'noda kelayotgani matnda qaysi so'z yoki gap o'rnida almashinib kelishiga qarab belgilanadi.

Olmoshlar bajaradigan vazifasiga ko'ra izohlanganda, so'z, so'z birikmasi yoki gap o'rnida almashinish asosida qo'llanishi aytilsa, bu ularning uslub talabiga ko'ra sodir bo'ladi. Lekin bu almashinishda ma'no-mazmun jihati ham mavjud.

III shaxs kishilik olmoshlari (u, ular) avvalgi gapdagi so'z yoki so'z birikmasi o'rnida kelib, ortiqcha takrordan xalos bo'lish maqsadini ko'zda tutadi. Bu yerda ma'no-mazmuniy aloqa kamroq namoyon bo'ladi. 6-sinfda kishilik (u, ular) va ko'rsatish olmoshlarining asosan bosh kelishikda qo'llanishi mashq qilinadi. 7-sinfda ushbu olmoshlarning bosh kelishikdan boshqa kelishik shakllarida kelishiga ham e'tibor qaratiladi. Ko'rsatish olmoshlarida ham uslub talabi, ham ma'no-mazmun aloqasi amalga oshiriladi. U, bu, shu olmoshlari avvalgi gap yoki gaplarda so'z yuritilgan predmet, harakat, belgiga ishora qiladi. O'sha olmoshi ancha oldinroq so'z yuritilgan predmet, harakat yoki belgiga ishora qiladi. Bunday, shunday, shuncha kabi olmoshlar fikrni o'xshash predmetlar, belgilar, harakatlarga ko'chirish imkonini beradi. Ko'rsatish olmoshi avvalgi gapda tilga olingan fikr predmetiga e'tiborni qaratadi. Masalan: Bu san'at taxminan ikki ming besh yuz yil ilgari Sharqda paydo bo'lgan. (birinchi "Dorbozlik – san'atning eng qadimiy turlaridan biri" gapidagi dorbozlik san'atiga ishora qilmoqda). Ko'rinadiki, bir gap tarkibida predmetni boshqalaridan ajratyapti. O'zlik olmoshi (o'z so'zi) ikki gapni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiladigan holatlar bor. Bu holatlar asosan ega kishilik olmoshlari bilan ifodalanganda ro'y beradi. Masalan, Men... O'zim... Sen... O'zing... Biz... O'zimiz... Siz... O'zingiz... kabi. Lekin ta'kid ma'nosini kuchaytirish uchun Men o'zim, Sen o'zing... kabi qo'llanish holatlari ham uchraydi. Kamdan-kam holatlarda ega ot bilan ifodalangan holatlarda ham o'zlik olmoshi bilan almashtiriladi.

To'pdan ajratilgan shaxs, narsa, belgilarni bildiradigan belgilash va bo'lishsizlik olmoshlari bir-biriga qarama-qarshi ma'no anglatib, zidlash uchun ishlatiladi. Masalan: Har kim o'z vazifasini bajarishi kerak. – Hech kim o'z vazifasini bajarmay qolmasligi kerak.

Hamma, barcha, bari, butun olmoshlari uyushiq bo'laklarda umumlashtiruvchi so'z, bir necha gap yoki bir necha qismdagi shaxs, narsa-buyum, belgini, ish-harakatlarni jamlovchi, umumlashtiradigan gap vazifasida keladi. Masalan, U xuddi noyob narsaga ega bo'lgandek, uzoq duo qiladi, birpasda hamma qo'shnilariga ko'z-ko'z qilib chiqadi, shundoq "mehribon" o'g'li borligini aytib maqtanadi, (O'. Hoshimov)

Bog'lovchi ikki va undan ortiq gap bo'lagi yoki qo'shma gap tarkibidagi soddaga gaplarni, yoxud matn qismlarini o'zaro bog'lash, ular o'rtasidagi mazmuniy munosabatni ham ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladi.

Va, hamda, ham biriktiruvchi bog'lovchilari matn tarkibida ikki gapni o'zaro bog'laganda ko'proq mazmuniy aloqa yuzaga chiqadi. Bunday mazmun biriktirishdan ko'ra ko'proq sabab-natija ma'nosini ifodalaydi. Masalan: Bahor keldi va kunlar isiy boshladi. Bu gapdagi mazmuniy bog'lanish bahor kelgani sababli kunlar isiy boshlaganida (natija) ko'rinadi. Bunday holatlarda biriktirish, tenglashtirishdan ko'ra ergashish (tobelanish) namoyon bo'ladi.

Zidlov bog'lovchilari (ammo, lekin, biroq) shu ma'noda ikki gapni yoki matn qismlarini o'zaro bog'lash uchun xizmat qiladi. Bunda ushbu bog'lovchilar ikkinchi gap yoki qism avvalida bosh harf bilan boshlanadi. Masalan: Bu qizcha shu topda undan jon so'rasa, balki, ayamasdi. Lekin non qani? (Oybek)

Balki so'zi ko'pincha zidlov mazmunida qo'llanadi. Masalan: Bolalaringizni boy bo'lishga emas, balki baxtli bo'lishga o'rgating. (Ratan Tata)

Ayiruv bog'lovchilari (yoki, yo ... yo, goh ... goh, dam ... dam, bir ... bir, ba'zan ... ba'zan, xoh ... xoh) o'ziga xos mazmuniy (ko'proq zidlash asosidagi) bog'lanishlarni ifodalaydi.

Yoki, yo ... yo bog'lovchilari asosan ikki ish-harakatning biri amalga oshishi kerakligini anglatadi, ya'ni ikki ish-harakatdan biri tanlanishi lozim bo'ladi. Masalan: Kelgan joyimizga aslo qaytmaymiz, yo o'tamiz, yoki daryoga tushib o'lamiz, – debdi. (Ertakdan)

Goh ... goh, dam ... dam, bir ... bir, ba'zan ... ba'zan, ham ... ham bog'lovchilari ish-harakatlarning navbat bilan sodir bo'lishi ma'nosini anglatadi. Ba'zan takror qo'llangan bog'lovchi navbatdagi gap yoki qism boshida bosh harfdan boshlanadi. Masalan: Bulutlar haydar shamol, Goh yog'ib o'tar yomg'ir. Barglar pokiza, zilol, Goh quyosh to'kadi nur. (Ramz Bobojon)

Inkor bog'lovchisi (na ..., na ...) ikki ish-harakatning ikkalasi sodir bo'lmaganligini anglatadi. Ushbu bog'lovchida zidlash ma'nosi ham ifodalanadi, ya'ni ish-harakatlar bir-biriga qarshi qo'yiladi. Masalan: Hamdam na ko'chada o'rtoqlari bilan o'ynadi, na oyisi tayinlab ketgan yumushlarni bajardi. Bunda gapning kesimi ba'zan tasdiq shaklida bo'ladi.

Na... na yuklama vazifasida ham kelishi mumkin. Bunda gapning kesimi inkor shaklida bo'ladi. Masalan: Na uyda topolmayman, na ishdan. (Said Ahmad)

Sabab va shart bog'lovchilari (negaki, chunki) ko'proq ish-harakatning bajarilmaganlik sababini anglatadi.

Aniqlov bog'lovchisi (ya'ni) kamdan-kam holatlarda ikki mustaqil gapni o'zaro bog'laydi. Masalan: Kimning yeyishi oz bo'lsa, tani sog' bo'ladi, ya'ni oz yegan odamdan salomatlik yuz o'g'irmaydi. ("Tabobat xazinasi durdonalaridan")

III. 7-sinfda "Ona tili" darsligi asosida yangi o'rganilayotgan va Milliy dastur loyihasi talabiga ko'ra kiritiladigan ma'lumotlar modal so'zlar, yuklamalar va tinish belgilari bilan bog'liq matniy qoidalar o'rganiladi.

Axir, hatto, faqat, ham, xuddi, go'yo, go'yoki, naq, hech, sira, nahotki, na ... na so'z yuklamalari ikki mustaqil gapni yoki matn qismlarini o'zaro bog'lash uchun xizmat qiladi.

-mi, -chi, -gina (-kina, -qina), -dir, -u, -yu, -da, -a singari qo'shimcha-yuklamalar gaplarni o'zaro bog'lash uchun deyarli ishlatilmaydi, ular matndagi gaplarga turli ma'no o'ttenkalarini qo'shib, ta'sirchanlikni oshiradi.

Modal so'zlar haqidagi ma'lumotlar ikki mustaqil gapni va matn qismlarini quyidagi grammatik ma'nolar asosida bog'lash uchun xizmat qiladi: ishonch (albatta, shaksiz), gumon (ehtimol, chamasi, shekilli), quvonch, afsuslanish (attang, afsuski) fikrning tartibi (avvalo, avvalambor), fikrni xulosalash (xullas, demak, umuman), tasdiq (darhaqiqat, haqiqatan), fikrni dalillash (masalan, jumladan).

Ona tili o'quv fanidan tuzilgan Milliy dastur loyihasida tinish belgilari gapning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash va anglatishda qo'llanadigan belgilar tizimidir, degan ta'kid bilan 7-sinfda nuqta, so'roq belgisi, undov belgisi, vergul, ikki nuqta, uch nuqta, nuqtali vergul, defis (chiziqli), tire, qavs, qo'shimcha haqida ayrim-ayrim ma'lumotlar berish ko'zda tutilgan. Tabiiyki, bu davrga qadar o'quvchilar ushbu tinish belgilarining deyarli hammasini bilib olgan bo'ladi. Matndagi gaplarning chegarasini belgilash, ko'chirma gap, dialoglar munosabati bilan defis (chiziqli), qavs, uch nuqtadan boshqa hamma tinish belgilarining vazifasini angliydigan, ularni ishlatish malakasiga ega bo'ladi. Defis (chiziqli) asosan juft va takroriy so'zlar, raqam bilan ifodalangan tartib sonlarda qo'llanadiki, bularning matn tuzilishiga dahli yo'q. "5–10-betlarda" kabi sonlarda tire -dan -gacha ma'nosini anglatadi. Uch nuqta matnda ayrim gaplar, fikrlar tushirib qoldirilganligi ma'nosini bildiradi.

Matn tarkibida qavsning o'rni o'ziga xos. Undan ayrim holatlarda beriladigan izohlar, lirik chekinishlar, kiritmalarni qavs ichida ko'rsatish munosabati bilan foydalaniladi. Masalan: Uni tanishsa kerak (Farg'onada bir-birini tanimaydigan odam kam), bir bola kosada yaxna choy olib chiqdi (O'.Umarbekov).

Matn tarkibida ikki mustaqil gapni yoki matn qismlarini o'zaro bog'lashda bo'lmasa-da, ta'sirchanlikni oshirish maqsadida bo'yoqdor so'zlar, yordamchi so'zlardan ba'zi ko'makchilar (kabi, singari, yanglig' va b.) morfologik shakllar (-dek, -day kabi), grammatik ma'noni kuchaytiruvchi qo'shimchalar, shu jumladan, qo'shimcha-yuklamalar qo'llanadi. Qo'shimcha-yuklamalar uyushiq bo'laklarni, qo'shma gaplarni c'tiborga olmaganda, matnning sintaktik qurilishiga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Xulosa va takliflar. 7-sinfda matn tuzilishiga doir qoidalar 5-6-sinflarda o'tilganlarni aynan yoki qisman kengaytirib takrorlash (olmosh, ko'makchi, bog'lovchi) yangi tasnif elementlari bilan boyitish, shu sinfda ilk bor o'rganiladigan til hodisalaridan (yuklamalar, modal so'zlar) iborat ta'lim mazmunida o'z ifodasini topadi.

ADABIYOTLAR

1. Валгина Н.С. Теория текста. Москва, Логос. 2003.
2. Фридман, Л.Г. Грамматические проблемы лингвистики текста. Изд-во Ростовского университета, 1984.
3. Qurbonova M. Yo'ldoshev, M. Matn tilshunosligi. Toshkent: Universitet, 2014.
4. Muxamedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi. Toshkent. 2011.
5. Ziyodova T. Tilni tizimli o'rganishda o'quvchilarda kommunikativ savodxonlikni oshirish bosqichlari // Xalq ta'limi. 2015. 3-sop. – B. 23 – 29.
6. Йўлдошев М. Баъдий матн лингвистикаси. Тошкент: Фан, 2008.
7. Осипова, Э.Н. Лингвистика текста и текстовый аспект изучения синтаксиса в школе. Учебно-методические рекомендации. Архангельск: Поморский государственный университет им. М.В.Ломоносова, 2009.
8. Садыхова С. Композиционно-смысловая структура синтаксического целого. Баку: Нурлан, 2010.
9. Зиёдова Т.У. Матн яратиш технологияси. Монография. Тошкент: Фан, 2008.
10. Рихсиева М. Таълим рус тилида олиб бориладиган мактабларнинг ўзбек тили дарсларида ўқувчиларга матн тузишни ўргатиш методикаси. Пед.фан.ном. ...дисс. Тошкент, 2009.
11. Бекниязова Н. Бошланғич синфлар она тили дарсларида ўқувчиларга матн яратишни ўргатиш методикаси (таълим ўзбек ва қорақалпоқ тилларида олиб бориладиган мактаблар мисолида): Монография. Тошкент: Фан ва технологиялар, 2012.
12. Yo'ldoshev R.A., Rixsiyeva M.M. Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019.
13. Mavlonova K., Yo'ldoshev, R., Xakimova, N. Matn tuzilishiga oid qoidalar. O'quv-metodik qo'llanma. Toshkent: Nodirabegim, 2021.
14. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Toshkent: Ma'naviyat, 2017.
15. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi loyihasi. Ona tili. (1–11 sinf). Toshkent: RTM, 2020.